



XORAZM ZARGARLIK SANATI

Fotima Shokirova

Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi noshirlik bo'limi bosh mutaxasisi
samarkandmuseum@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ishda Xorazm zargarlik san'atining shakllanishi, rivojlanish tarixi va o'ziga xos badiiy xususiyatlari yoritilgan. Xorazm hududida qadimdan rivojlanib kelgan zargarlik an'analari, ustalarning mahorati, zargarlik buyumlarini tayyorlash usullari hamda ularda qo'llanilgan bezak va naqshlarning mazmuni tahlil qilinadi. Shuningdek, ayollar taqinchoqlari, bosh va ko'krak bezaklari, uzuk, bilaguzuk, sirg'a kabi zargarlik buyumlarining milliy madaniyatdagi o'rni haqida ma'lumot beriladi. Xorazm zargarlik san'atining xalqning urf-odatlarini, estetik qarashlari va tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi. Mazkur mavzu milliy zargarlik san'atini asrab-avaylash, o'rganish va kelajak avlodga yetkazish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Xorazm zargarlik san'ati, zargarlik, milliy hunarmandchilik, zargarlik buyumlari, taqinchoqlar, xalq amaliy san'ati.

Zargarlik san'atining tarixi juda qadimga borib taqaladi. Qadimgi va antik davrlarga mansub oltindan ishlangan zargarlik buyumlari bir qator xazinalar tarkibida saqlangan (mil. avv. IV-II asr Amudaryo xazinasi va mil. I asr Dalvarzin xazinasi). Ushbu buyumlarning bezagida mahalliy an'analari bilan bir qatorda, yunon ellin, qadimgi eron hamda ko'chmanchi skif san'ati ta'siri seziladi. Islom davriga mansub tilla va kumushdan ishlangan zargarlik buyumlari haqidagi ma'lumotni o'sha davr miniatyura asarlaridan bilib olish mumkin. XIX-XX asr boshida Buxoro, Xiva va Qo'qon shaharlarida ishlab chiqarilgan yarim tilla va kumush namunalari bizning davrgacha saqlanib qolgan. [A. Hakimov Z. Nosirova B. Nodir Toshkent – 2019 1.75b]. Xorazm zargarlik san'atining o'ziga xosligi shundaki Xorazm zargarlik buyumlarini boshqa hududlarning taqinchoqlaridan ajratib turadigan jihatlardan biri — katta hajmli, murakkab kompozitsiyali va osma bezaklarga boy ekanligidir. Buyumlarning yuzasi mayda naqshlar bilan to'ldirilgan bo'lib, ularda geometrik va o'simliksimon shakllar uyg'unlashgan. Zargarlik buyumlarida markaziy yirik shakl atrofida mayda bezaklarning joylashtirilishi kompozitsiyaga yaxlitlik beradi. Osma qismlarning ko'pligi esa taqinchoqqa harakat va nafislik baxsh etadi. Xorazm zargarlari metallga ishlov berish bilan bir qatorda bezaklarning inson kiyimidagi joylashuviga ham katta e'tibor berganlar. Shu sababli har bir taqinchoq kiyim va bosh kiyim bilan uyg'un



holda ko‘rinadigan qilib yaratilgan. Xorazm zargarlik buyumlari yurtimizning boshqa hududlaridagi zargarlik buyumlaridan ajralib turadigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. XIX asr oxiri – XX asr boshidagi Xorazm madaniyati odatda ba’zi arxaik xususiyatlarni saqlab qolish bilan tavsiflanadi. Ulardan ayniqsa, “bodomoy” (bodom va oy) taqinchoqgi ahamiyatli hisoblanadi. U uchta bir-biriga tutashgan bodomsimon, teskari-siga yarim oysimon ko‘rinishidagi o‘ziga xos zargarlik buyumidir. Ushbu peshona taqinchoqi asosan XX – asrning boshlariga qadar taqilgan. Yana “Bodomoy” Anaxita ma’budasining ramzi bo‘lib, u qadimda Amudaryo yerlari va suvlarining unumdorligini aks ettirgan. Ba’zi rivoyatlarda Anaxitaning to‘rt qurolli Xudo sifatida tasvirlanganligi, qo‘lida quyosh va oy ramzlari, bosh kiyimida esa uch tishli oy bilan bezatilgan taqinchoqlar bilan tasvirlangan degan ma’lumotlarni uchratish mumkin. Kelinning bosh kiyimida bu bezakning mavjudligi, ehtimol, turmushga chiqayotgan qiz oilaning davomiyligiga sababchi bo‘ladigan “buyuk ona” ma’budasini timsoli bilan izohlangan. Xorazm ayollarining asl bezaklaridan biri qubbasimon (gumbazsimon) bosma uslubida ishlangan va kalit shodalar osilgan peshxalta (yoki kalit bog‘i) taqinchoqi hisoblanadi. Ushbu zargarlik buyumlari oiladagi katta yoshli ayolning taqinchoqi bo‘lib, u oziq-ovqat mahsulotlarini taqsimlash bilan shug‘ullanganligi uchun ovqat ombori bo‘lgan. U ayol ko‘ylagi yoqasining vertikal yorug‘ining uchiga birlashtirilgan edi. Qiziqarli taqinchoqlardan yana biri bu, bosh kiyimning orqa tomoniga taqish uchun mo‘ljallangan bezak – bu “butun tunak” (“to‘liq tirnoq”) taqinchoqi hisoblanadi. Ushbu taqinchoq boshning orqa tomoniga, lachakka ikkala tomonga birlashtirilib (lachak – birinchi farzand tug‘ilgandan keyin kiyiladigan ayolning bosh kiyimi) taqilgan. “Butun tunak” yosh ayolni yomon ko‘zdan himoya qilishi kerak deb tushunilgan. Uning asosiy qismi pastki chetiga ikkita tirnoqsimon shokila bo‘lib, shular asosida taqinchoqqa nom berilgan. Bu bezak ba’zida qoplonning tirnoqlari, qushning panjasi yoki echki bolasining shoxlari ko‘rinishida ishlangan. Bezakda tirnoqning mavjudligi uning himoya ahamiyatini ko‘rsatadi. [Samarqand davlat muzey qo‘riqxonasi katalogi Samarqand 2025. 2.12 b]

Bodom-oy. Xorazm xx asr boshi

“Bodomoy” nomi “bodom” va “oy” so‘zlaridan kelib chiqqan. Bodom shakli qadimiy bezaklarda hayot va unumdorlik, oy esa go‘zallik va ayollik ramzi sifatida talqin qilingan. Taqinchoqdagi osma qismlar va ayrim shakllarga esa himoya ma’nosi berilgan.

Bu kabi zargarlik buyumlari faqat chiroy uchun emas, balki ayolning ijtimoiy mavqeyi, oilaviy holati va milliy an’analarini ham ifodalagan. “Bodomoy” Xorazm zargarlik san’atining eng nafis namunalaridan biri bo‘lib,



unda xalqning qadimiy e'tiqodlari, estetik qarashlari va zargarlik mahorati mujassamlashgan.

Xorazm zargarligida uzuk, bilaguzuk, isirg'a, tillaqosh, zebigardon, marjon va boshqa taqinchoqlar tayyorlangan. Ularning ustiga turli naqshlar tushirilgan. Naqshlarda gullar, barglar, yulduzlar va geometrik shakllardan foydalanilgan. Ba'zi taqinchoqlarga feruza, marjon va aqiq kabi toshlar ham o'rnatilgan. Xorazm zargarlik san'atining o'ziga xos tomoni shundaki, buyumlari juda nafis, bezaklari esa yorqin va ko'rkam bo'lgan. Zargarlar har bir buyumni qo'lda tayyorlab, unga o'ziga xos ko'rinish berishga harakat qilganlar. Menimcha, Xorazm zargarlik san'ati xalqimizning boy tarixi va madaniyatini ko'rsatib beradigan qimmatli meroslardan biridir. Bugungi kungacha bu san'at an'analari saqlanib kelayotgani quvonarli. Uni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish juda muhim.

Xulosa

Xorazm zargarlik san'ati — xalqimizning boy madaniy merosini o'zida mujassam etgan muhim amaliy san'at yo'nalishidir. Undagi nafis naqshlar, murakkab shakllar va rang-barang bezaklar zargarlarning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Bodomoy, Butuntirnoq, Kalitbog'i kabi taqinchoqlar oddiy bezak buyumlari bo'lib qolmasdan, xalqning qadimiy dunyoqarashi, urf-odatlarini va e'tiqodlarini aks ettiruvchi madaniy yodgorliklar hisoblanadi. Bugungi kunda bunday buyumlarning muzeylarda saqlanishi va o'rganilishi milliy zargarlik an'alarini kelajak avlodga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Xorazm zargarlik san'atini o'rganish orqali biz nafaqat qadimiy hunarmandchilik texnikalarini, balki ajdodlarimizning go'zallik, tabiat, oila va inson haqidagi qarashlarini ham chuqurroq anglashimiz mumkin.

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR

1. A. Hakimov Z. Nosirova B. Nodir Toshkent – 2019. 75b
2. Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi katalogi Samarqad 2025